

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O’RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

NAVOIY IJODIDA RAQAMLAR BILAN BOG’LIQ BA’ZI QARASHLAR

Sofiya Jumayeva

filologiya fanlari nomzodi, dotsent,

Toshkent amaliy fanlar universiteti

E-mail: sofiyakodirovna@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada diniy manbalarda qo’llanilgan “As’habi kahf” tushunchasi Alisher Navoiy ijodi misolida tahlil qilingan. Shoir asarlari, xususan, “Xamsa”dagi dostonlarning kirish qismlari, “Lison u-tayr” dostonida talmeh sifatida keltirilgan ushbu tushuncha turli manbalardagi fikrlar asosida yoritib berilgan. Shuningdek, As’habi kahf bilan bog’liq boshqa tushunchalarga ham e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy ijodi, As’habi kahf, yetti raqami, talmeh san’ati, shamsiy yil hisobi, qamariy yil hisobi.

Аннотация: И данной статье на примере творчества Алишера Навои анализируется концепция “Асхоби каҳф”, использующая религиозные источники. В творчестве поэта, в частности, вступительные части в “Хамсе”, это понятие освещено на основе мнений различных источников. Также уделяется внимание другим понятиям, связанным с “Асхоби каҳф”

Ключевые слова: творчество Алишера Навои, Асхоби каҳф, число семь, расчет солнечного года, расчет лунного года.

Abstrakt: In this article , the concept of “As’habi kahf” used in religios sources, in analyzed on the example of Navoi’s work. The works of poet, in particular, the introductory parts of the epics in “Khamsa”, are illuminated based on the ideas of the sources based on the concept, which is presented as a commentary in the epic “Lison ut-tayr”. It also focuses on other concepts related to As’habi kahf.

Key words: Alisher Navoi's creation, Ashabi kahf, number seven, art of talmeh, calculation of the lunar year, calculation of the lunar year

Alisher Navoiy yirik so‘z san’atkori sifatida turkiy badiiy ijodni ham ma’no, ham shakl jihatidan jahoniy mavqega ko’tardi. Shuning uchun ham asrlar o’tsa-da, uning adabiy merosiga bo’lgan ma’naviy ehtiyoj oshib bormoqda. Bu hol ulug’ shoirning “Muhokamat ul-lug’atayn”da o‘z ijodidan faxrlanib bildirgan quyidagi bashoratomuz fikrlarining nechog‘li to‘g‘ri ekanligini yana bir bor isbotlaydi: “Umidim uldur va xayolimg‘a andoq kelurkim, so‘zim martabasi avjdin quyi inmag‘ay va bu tartibim kavkabasi a’lo darajadin o‘zga erni beganmagay”.

Navoiy hamma zamonalr va barcha davrlar uchun hozirjavob ijodkor sifatida hayotiy muammolar, dolzarb masalalarga kitobxon e’tiborini qaratadi. Olamning yaratilishi, jamodot, nabotot, hayvonot olamidagi o‘zgarishlar, insonning dunyoga kelishi va yashashdan maqsadi, hayotning mazmuni singari juda keng ko‘lamli masalalar shoir asarlaridan o‘rin olgan. Alisher Navoiy nafaqat shoir, ijodkor, balki ulug’ bir mutafakkir, faylasuf, olim va ba’zan avliyosifat bir shaxs sifatida juda

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O’RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

murakkab va qiyin muammolarni yoritadi, ularga javob axtarishga, mohiyatini anglab, talqin qilishga harakat qiladi.

Navoiy asarlarini varaqlaganda o‘quvchi uchun mavhum bo‘lgan, ma’nosiga barcha ham birdek tushunavermaydigan, izohtalab so‘z va iboralarga duch kelinadi. Ana shunday iboralardan biri “As’obi kahf” tushunchasidir. Ba’zi manbalarda “yetti uxlagan” tarzida ham keltiriladi. Bu tushuncha Qur’oni karimning “Kahf” surasidagi “As’obi kahf” qissasi bilan bog‘liqdir. Unda zikr qilinishicha, xudolik da’vosini qilgan Daqyunus degan zolim podshoh zamonida bir necha iymonli yigitlar podshoh amriga qarshi chiqib, Tangri taolo ibodati bilan mashg‘ul bo‘ladilar. Bundan xabar topgan zolim shoh ularni jazolamoqchi bo‘ladi. Ta’qibdan qochgan yigitlarni bir g‘or o‘z bag‘riga oladi. G‘orga yashiringan yigitlar uyquga ketadilar. Alloh mo‘jizasi bilan uyqudan uyg‘onganlarida oradan bir qancha vaqt o‘tgan, Daqyunus allaqachonlar vafot etgan va xudoparast odil bir podshoh saltanat yuritar edi. Bozorga oziq-ovqat olish uchun kelgan yigitlardan biri shahar va bozorning o‘zgachaligidan hayron bo‘ladi. Uning qo‘lidagi tangani ko‘rgan bozor ahli “Daqyunus ganjini topibsan”, deb yigitni podshoh huzuriga yetaklaydi. Podshoh yigit gaplarini eshitib avvaliga hayron bo‘ladi. Ulamolarni yig‘ib suhbatlashganda, muqaddas kitoblarda Daqyunus zamonida bir jamoat g‘orga kirib, 309-yildan keyin uyg‘ongaylar, deb qayd qilingani ma’lum bo‘ladi. Masalaning mohiyatiga tushungan podshoh as’obi kahf – g‘or yigitlarini saroyga chaqirib mehmon qiladi. Yigitlar Tangriga shukrona aytib yana g‘orga kiradilar va abadiy uyquga ketadilar. “Podshoh ana shu g‘orda ulkan bir maqbara qudiradi”[1.78].

Yo‘lda ketayotganlarida bir cho‘pon va uning “Qitmır” otli iti ham ularga ergashadi, qanchalik quvmasinlar, it ularidan ajralmaydi. Inonchlarga ko‘ra, bu it jannatga kiradigan yetti hayvondan biridir. Abdulfutuh Shayx Ahmad G‘azzoliyning “Bahrul mahabba” asarida shunday deyiladi: “Jannatda inson jinsidan va jinlar jinsidan boshqa yetti narsa bo‘ladi: Ya’qub alayhissalomning bo‘rilari, As’obi kahfning itlari, Solih alayhissalomning tuyalari, Uzayr alayhissalomning eshaklari, As’obi filning fillari, Ali (r.a.)ning duldullari va Rasululloh (s.a.v.)ning xachirlari”.[2.83] As’obi kahfga vafodorlik ko‘rsatib, ular bilan birga g‘orga kirgan va iymonlilarga ergashgani uchun jannati bo‘lgan ushbu it timsoli ham adabiyotda yorqin obrazlardan biriga aylangan. Chunonchi, do‘stlik, sadoqat, e’tiqodlilik haqida so‘z ketganda “As’obi kahf” tushunchasi tilga olinadi. Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonining muqaddimasida uch xamsanavis shoir – Nizomiy Ganjaviy, Xisrov Dehlaviy va Abdurahmon Jomiyni madh etarkan, o‘zini ularga “soya kibi hamqadam” ekanligini ta’kidlaydi va:

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O’RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

*Kahfi baqo ichra alar bo‘lsa gum,
Men ham o‘lay “robiuhum kalbuhum”, [3.56]*

deydi, ya’ni foniylig g‘orida ular yo‘qolgudek bo‘lsalar, men ham to‘rtinchilari – itlari bo‘layin. Navoiy “robiuhum kalbuhum” – to‘rtinchi yo‘ldosh iborasida ana shu itni nazarda tutmoqda.

Karomatgo‘y, nazar va nafaslari o‘tkir bo‘lgan valilar qalb quvvati, nafas quvvati, nazar quvvati bilan boshqalarga ta’sir o‘tkaza olganlar, voqealarni oldindan ko‘ra bilganlar, ruhan olamlarni sayr qila olganlar [4.125-126]. Najmuddin Kubro ana shunday valiytarosh shayx bo‘lgan. “Lison ut-tayr” dostonida shunday bir rivoyat keltiriladi. Najmuddin Kubro sukr (Haq vaslidan sarkushlik) holatida ekan, nazari bir itga tushadi. Oshnolik mazasini tatib ko‘rgan itda ham ilohiy ishq tug‘yoni paydo bo‘la boshlaydi. Itlik siyratidan voz kechadi va shayx oyog‘iga bosh qo‘yib unga muriddek buysunadi. Itlar orasida sarafroz bo‘lib, boshqa itlar uni tavof qilgandek atrofida yurardilar. It qazosi yetib, shayx dargohida vafot etadi. Shayx uni xuddi odamlardek yuvib-tarab, dafn etadi. Bu valiydan itga yetgan tarbiyatning hosilasi deb qaraladi va “As’hobi kahf” voqeasi dalil sifatida keltiriladi [5.143-144].

Qadimgi manbalarda itning nomi va jinsi xususida turli fikrlar bo‘lganidek, As’hobi kahf yigitlarining soni, ularning ismlari, g‘orning joylashgani joyi va g‘orda qancha vaqt qolganliklari singarilar haqida ham munozarali fikrlar ilgari surilgan. Ayrim adabiyotlarda As’hobi kahf tarkibidagi yigitlar soni uchta, to‘rtinchisi itdir deyilsa, ayrimlarida ularning soni yettita, it sakkizinchisidir, deb ko‘rsatiladi. Qur’onning “Kahf” surasi 22-oyatida “...ularning soni uchta, to‘rtinchisi itdir”, deguvchilar bor” deyiladi. Ammo oyati karimada As’hobi kahfning soni qayd qilinmagan: “Ey Muhammad, ularning sonini Rabbim yaxshiroq biluvchidir. Ularni juda oz kishi bilur, deng” [6.619].

Ba’zi manbalarda, jumladan, Iskandar Palaning ensiklopedik lug‘atida As’hobi kahf soni yettita ekanligi qayd etilib, yetti yigit nomlari keltirilgan. Unga ko‘ra, bu yetti yigitning ismlari: Yamlaho, Maqsalina, Maslino, Marnush, Dabarnush, Sozanush, Qafashtataynush [7.44]. Alisher Navoiyning “Tarixi Muluku Ajam” asarida As’hobi kahfdan faqatgina bir yigitning ismi – yegulik olib kelish uchun shaharga borgan yigitning ismigina keltiriladi: “Va Tamlixo degan rafiqlarin shahrg‘a yibormishlar, taom kelturur uchun” [8.182].

“G‘or do‘stlari” – As’hobi kahfni o‘z bag‘riga olgan g‘orning qaysi hududda joylashganligi ham munozaralari masalalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda Turkiyaning turli hududlarida, jumladan Tarsus, Afshin, Ofas, Alvistan singari

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O’RGANISH MASALALAR”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

joylarida As’hobi kahf deb ataluvchi g‘orlar bo‘lganidek, Turkiston tog‘larida ham xuddi shunday g‘or borligi qayd etiladi.

“Kahf” surasining 25-oyatida: “Ular qahf-g‘orlarda uch yuz yil turdilar va yana to‘qqiz yilni ziyoda qildilar”, – deyilgan. Holbuki, 19-oyatda ularning bir yoki yarim kun uxlaganliklari qayd etilgan edi. Bu yerda gap jamodot va jonzotlar o‘rtasidagi bir-biridan farq qiluvchi vaqt hisobi haqidadir. Chunki bizdagi vaqt hisobi bo‘yicha olingan yuz yil jamodotda bir yoki ikki soatlik vaqt oralig‘idir. Buning sababi jamodotdagi zamon tushunchasining inson yaratgan vaqt hisobida juda uzoq davrni qamrab olishidir.

Musulmon olamida shamsiy-quyosh va qamariy-oy hisobi qadimdan amalda bo‘lib kelgan. Shamsiy yil hisobi yer kurrasining Quyosh atrofidan aylanishiga asoslanib, 365, 24... quyosh kuni bir quyosh yilini tashkil etadi. Qamariy yil hisobi esa Oyning yer atrofidan aylanishiga asoslanib, uning o‘n ikki marta aylanishi bir oy yili hisoblangan va bu 354, 36... kunni o‘z ichiga olgan. Olimlarning hisob-kitoblariga ko‘ra, quyosh va oy yillari orasida o‘n bir kunga farq bo‘lib, bu 100 quyosh yili 103 oy yiliga, 300 quyosh yili esa 309 oy yiliga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham As’hobi kahfning g‘orda bo‘lgan muddati to‘g‘ridan to‘g‘ri 309 yil deb emas, balki 300 yil alohida aytilib, 9 yil ilova qilinmoqda.

XXI asrdagina sabablari yoritila boshlangan bunday holatlar Qur’onning mo‘jizalarga boy ilohiy kitobligidan dalolat beradi. Navoiy esa ana shunday ilohiy mo‘jizalarni qalb ko‘zi bilan ko‘ra olgan va teran idrok eta olgan ijodkordir. Zero, Hazratning o‘zi qayd qilganidek,

*Sirri haqiqatdin o‘lub bahravar,
Ayla basirat ko‘zi birla nazar. [5.328]*

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alisher Navoiy. Qomusiy lug‘at. Ikki jildlik. 1-jild. Toshkent, 2016. – 78-b.
2. Abdulfutuh Shayx Ahmad G‘azzoliy. Bahrul mahabba. Toshkent, 2019. – 352 b.
3. Alisher – Navoiy. MAT.20 jildlik. 7-jild. Toshkent, 1991. – 558 b.
4. Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. Toshkent, 2004. – 264 b.
5. Alisher Navoiy. MAT. 20 jildlik. 12-jild. Toshkent, 1996. – 328 b.
6. Qur’oni Karim. Toshkent, 2001. “Qahf” surasi. – 619 b.
7. İskender Pala. Ansiklopedik Divan Şiiri Sözlüğü. –44 s.
8. Alisher Navoiy. MAT. 20 jildlik. 16-jild. Toshkent, 2000. – 336 b.